

**NOAN'ANAVIY SABZAVOT EKINLARIDAN - BAMIYA YETISHTIRISH
TEXNOLOGIYASI**

Xakimov Shaxbozbek Shavkatbek o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Magistranti

Usmonov Mirzohid Sobirjon o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada bamiya o'simligining biologiyasi, tarqalishi va yetishtirish texnologiyasi haqida ma'lumotlar berilgan. Bamiyaning oziq-ovqatda va sanoatdagi ahamiyati to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Bamiya, agrotexnika, nav, duragay, unuvchanlik, sug'orish

Abstract

This article provides information on the biology, distribution and cultivation technology of the okra plant. The importance of okra in food and industry is discussed.

Keywords: Okra, agrotechnics, cultivar, hybrid, growth, irrigation

Dunyo bo'yicha bamiya bugungi kunda jami 120 ming gektardan ortiq maydonlarda yetishtirilib kelinmoqda. Birgina 2019 yilda 10.1 mln tonnadan ortiq, jumladan: Hindistonda 6.5 mln tonna, Xitoyda 6.0 mln tonna, Nigeriyada 3.6 mln tonna, Sudanda 3.2 mln tonna, Malida 2.8 mln tonna, Pokistonda 1.2 mln tonna mahsulot yetishtirilgan. Mamlakatimiz tuproq-iqlim sharoiti uchun yangi bo'lgan ushu sabzavot turining hosildorligi yuqori, kasalliklarga chidamli, sifatlari va qimmatli moddalarga boy navlarini introduksiya qilish, yangi navlarini yaratish va yetishtirish texnologiyalarini ishlab chiqish mamlakatda sog'lom ovqatlanish asosi bo'lgan sabzavot ekinlarini assortimentini yanada kengaytirish imkonini beradi.

Hozirgi kunda respublikamizning janubiy va markaziy hududlarida bamiya yetishtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Tajribalar o'z natijasini bersa Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti olimlari tomonidan yaratilgan bamiyaning "Toshkent tuhfasi", "Zamin", va "Shafaq" kabi navlari iqlimlashtirilib, uning mevasini boshqa hamdo'stlik davlatlariga eksport qilish imkoniyati tug'iladi.

Dehqonchilik madaniyatini, tuproq unumidorligi va bamiya hosildorligini oshirishda almashlab ekish asosiy omillardan biridir. Almashlab ekishni joriy etmasdan o'g'itlash, sug'orish, begona o'tlarga, hasharot va kasalliklarga qarshi kurashishning to'g'ri tizimini ta'minlab bo'lmaydi. Bamiya sabzavoti uchun beda, ko'kat va dukkakli ekinlar, piyoz,

sarimsoq, poliz ekinlari, bodring va karam yaxshi o'tmishdosh hisoblanadi. Bamiyani bamiyadan keyin yoki ituzumdoshlar oilasiga mansub boshqa ekinlardan keyin ekmaslik kerak. Chunki bamiya mevasi g'o'za singari ko'sak qurti bilan zararlanadi. Bir dalada bamiyani 2 yil o'stirib, takroran 3 yildan so'ng ekish mumkin.

O'g'itlash tizimi organik va mineral o'g'itlarni qo'llashni o'z ichiga oladi. O'g'itlarni qo'llash me'yori va ularni tuproqning turiga, o'g'itning shakliga va almashlab ekish maydoniga qarab o'zgarib boradi. Bamiya tuproq unumdosligiga va o'g'itlarga talabchan ekin. U tuproqdagi oziq moddalarni o'zlashtirishi bo'yicha sabzavot ekinlari orasida oldingi o'rnlardan birini egallaydi.

Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti ma'lumotlariga ko'ra, gektaridan 110-140 sentner bamiya hosili olish uchun 150-200 kg sof azot va 50-60 kg sof fosfor sarflanadi. Shuning uchun bamiya ekinini o'g'itlash shart.

Bamiya urug'larining unuvchanligini qulay sharoitda 4-5 yil davomida saqlaydi. Bunday urug'larning unuvchanligi 85-95 % ni tashkil qiladi. Ko'chatidan yetishtirish uchun bir gektar yerga bamiyaning urug'idan 2-3 kg kifoya qiladi. Urug'lar ekish oldi suvda yoki 0.01-0.05 % li o'stiruvchi stimulyatorlar, mikroelementlar eritmasida 10-12 soat davomida ivitiladi, so'ngra TMTD yoki boshqa shunga o'xshash fungitsidlar bilan ishlov beriladi. Bamiya ko'chatlarini ekish uchun kassetalar va oziqali aralashmalar tayyorланади. Urug'lar ko'chatxonalarga mart oyi boshida 0.5-1.0 sm chuqurlikda ekiladi. Maysalar unib chiqishi harorat 20-25 °C, ko'kargach 10-15 °C bo'lishi zarur. O'suv davrida oziqlantirish, sug'orish, begona o'tlardan tozalanishi kerak. 45-50 kundan so'ng 3-4 chinbarg chiqargan nihollar aprel oyida dalaga o'tqazish uchun tayyor bo'ladi. Ko'chatlarni 25-30 aprelda, 70-40 sm sxemada ekish tavsiya etiladi.

O'suv davri davomida qator oralariga ishlov berish ham zarur. Bundan maqsad begona o'tlarni yo'qotish va tuproq yuzasini yumshoq saqlashdir. Tuproq yuzasi yumshatilganda namning parlanishi kamayadi, zararli tuzlar yuzaga ko'tarilmaydi, havo almashinushi yaxshilanadi, tuproqning suv o'tkazuvchanligi oshadi. Qator orasiga ishlov berishni nihol to'liq tutib olgandan keyin boshlash kerak. Chunki bu vaqtida begona o'tlar ildiz otmagan, bamiya ildiz tizimi ham nozik, ildiz chirish kasalligiga chalinib qolish havfi paydo bo'ladi. Yer osti suvi chuqur joylashgan yerlarda bamiyani birinchi sug'orishda bir marta, yer osti suvi yuza joylashgan yerlarda esa ikki marta kultivatsiya o'tkaziladi. Bamiyani 2 marotabagacha qo'lida chopiq qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yuqori va sifatli hosil yetishtirishda suvning ahamiyati katta. Bamiya ekilgan maydonda suvning umumiylarini sarfi va transpiratsiyasining hajmi atrof-muhit sharoitiga, agrotexnika darajasiga va dalaga qo'yiladigan suvning miqdoriga qarab keskin o'zgaradi. Bamiyani suvga bo'lgan talabini qondirish uchun ildiz joylashgan qatlamda tuproq namligi dala nam sig'imiga nisbatan 65-70 % dan pastga tushmasligi kerak. Bamiyani sug'orish gullaguncha, gullah va pishish davrlarida olib boriladi va davrlar bo'yicha bo'linganligi uchun ham shartli ravishda

sug'orish sxemasi deb yuritiladi. Sug'orish sxemalari tuproq turi, mexanik tarkibi, yer osti suvining chuqur yoki sayoz joylashganligiga qarab har-xil bo'lishi mumkin, jumladan 1:3:1; 1:4:1; 2:5:1; 2:6:2 nisbatda. Bamiyani butun o'sish davrida hududlardagi ob-havo sharoitlari inobatga olinib, 2 martadan 5 martagacha sug'orish o'tkaziladi.

Bamiyaning hosili pishish darajasiga qarab har 3-5 kunda jami 10-15 martagacha qo'lida teriladi. Bamiya mevasi turlicha pishgan davrida terib olinadi. Bamiyani terish iyundan boshlanib oktabrgacha davom etadi. Terish kechiktirilganda mevalari tarkibidagi vitaminlar yo'qoladi, yog'ochligi oshadi, natijada hosil kamayadi. Bamiyaning biologik pishgan mevalaridan urug'larini ajratib olsa bo'ladi. Undan gektaridan 1.5-2 tonnagacha urug' yig'ib olish mumkin. Uning o'rtacha hosildorligi gektariga 100-140 sentner atrofida bo'ladi.

Foydalaniman adabiyotlar

1. Zuyev V., Qodirxo'jayev O. Bamiya / O'zbekiston qishloq xo'jaligi. Toshkent-2003 № 6
2. Ostonaqulov T.E., Zuyev V.I., Qodirxo'jayev O.Q. Sabzavotchilik. Qishloq xo'jalik oily o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. Toshkent-2009
3. To'xtayev B.E. Интродукция лекарственных растений засоленных землях Узбекистана.// Автореф. Toshkent-2009
4. Agrobank tomonidan tayyorlangan "100 kitob" to'plami.